

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G.Sabirdinov Sinovlarda toblangan ijod.....	6
G.M.Kirgizova Iqbol Mirzo ijodiy mahoratining shakllanish omillari	9
S.R.Mirzayeva Common features in the life and work of Babur and Navoi.....	13
S.R.Meliboyeva Zamonaviy o'zbek she'riyatida sun'iy intellekt va inson hissiyotining badiiy ifodasi muammosi.....	18
Я.И.Нишанов, Х.Жўраев Выражение общечеловеческих и национальных особенностей в повествованиях о Юсуфе	23
D.M.Khoshimova “Boburnoma” asarining lingvistik xususiyatlari.....	27
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining leksikografik xususiyatlari	30
Z.T.Hakimova Ingliz va o'zbek tilidagi tikuvchilik terminlarining tarjimaviy muammolari.....	33
D.O.Umarov Roman janri haqida mulohazalar.....	36
D.M.Khoshimova An analysis of “Baburnama” in comparison with its translation	39
Я.И.Нишанов, К.С.Туллекова Любовь в лирике Сапфо и Марины Цветаевой: сравнительный анализ	42
N.Farmonov Naturalism and consumer desire: Theodore Dreiser and the culture of American capitalism	47
Я.И.Нишанов Ассоциативно-вербальные сети концепта старость в языковом сознании носителей русского языка.....	51
D.D.G'ulomov Assotsiativ syujet: genezesi, nazariy paradigmasi va adabiy tahlili.....	55
K.Egamberdiyeva Badiiy adabiyotda ayol ruhiyati va ma'naviy olaminining aks ettirilishi	59
D.M.Abdullayeva Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” asari va unda ota obrazi	67
M.T.Tolibova Isajon Sulton hikoyalarining syujet qurilishi	71
A.A.Abduraxmonov Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang	74
F.X.Nurdinova Tarjimada leksik adekvatlikni ta'minlash (E.L.Voynichning “So'na” romanining rus va o'zbek tillari tarjimasi misolida)	77
F.X.Nurdinova Tarjima jarayonida milliy o'ziga xoslikni saqlash masalalari.....	81

TILSHUNOSLIK

M.M.Abdullayeva Integrating Social-Emotional Learning in foreign language classrooms: benefits and strategies	86
M.Y.Mamajonov	



UO'K: 821.512.133.09 -1

HALIMA XUDOYBERDIYEVA LIRIKASIDA OQ RANG

WHITE COLOR IN THE LYRICS OF HALIMA KHUDOYBERDIEVA

БЕЛЫЙ ЦВЕТ В ЛИРИКЕ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

Abduraxmonov Abiljon Abdusamatovich 

Farg'ona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Аннотация

Maqolada Halima Xudoyberdiyeva lirikasida oq rang qo'llanishining badiiy-estetik ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shoiri she'riyatining ta'sirchanligi rangning badiiy-g'oyaviy jihatdan qo'llash mahoratining zamirida yuzaga chiqqan hodisa sifatida tadqiq etiladi. Turli tushunchalarning sifatlovchisi bo'lib kelgan bir rang o'ziga nisbatan yondosh yoki kontrast qo'yilishi orqali ijodiy g'oyani ifodalashi tahlil qilinadi. Bu shoiri ijodida eng faol qo'llangan oq rang misolida ko'rsatib beriladi.

Abstrakt

The article discusses the artistic and aesthetic significance of the use of white color in the lyrics of Halima Khudoyberdiyeva. The expressiveness of the poet's poetry is studied as a phenomenon that arose at the core of the mastery of the artistic and ideological use of color. The way in which a color, which has been an adjective for various concepts, expresses a creative idea through its juxtaposition or contrast with itself is analyzed. This is shown on the example of the most actively used white color in the poet's work.

Аннотация

В статье рассматривается художественно-эстетическое значение использования белого цвета в лирике Халимы Худойбердиевой. Изучается экспрессивность поэзии поэтессы как феномен, возникший на основе мастерства художественно-идеологического использования цвета. Анализируется, как цвет, являющийся прилагательным для различных понятий, выражает творческую идею через сопоставление или контраст с самим собой. Это показано на примере наиболее активно используемого в творчестве поэтессы белого цвета.

Kalit so'zlar: rang, oq, ifoda, ramz, tushuncha, munosabat, ta'sirchanlik, badiiy-g'oyaviy, ijodiy g'oya, badiiy asar, lirik ideal.

Key words: color, white, expression, symbol, concept, attitude, impression, artistic-ideal, creative idea, artistic work, lyrical ideal.

Ключевые слова: цвет, белый, выражение, символ, понятие, отношение, впечатление, художественный идеал, творческая идея, художественное произведение, лирический идеал.

KIRISH

Insonning rangga bo'lgan munosabati o'zgaruvchan madaniy-tarixiy hodisadir. Uni o'rganish, o'zlashtirish, tatbiq qilish, "mohiyat yaratish jarayonlaridan sodir bo'lgan mintaqaviy, etnik, e'tiqodiy xususiyatlarning ramziy, simvolik ifodasiga ega psixologik munosabatining shakllanishi bilan bog'liq jarayondir"[1]. Oxir-oqibat rang an'anaviylashgan bugungi global tushunchalar doirasidagi ko'rinishga keldi.

Adabiyotdagi rang inson individual idrokidagi tabiiy xususiyatlarning qayta jonlantirilishidir. Nur tufayli rang hissiy xarakter sifatida tiriklikni namoyon qilib beradi. So'zdagi rang vositasida ko'rib his etilgan borliqning tafakkurdagi in'ikosini qo'zg'ab, uni qayta yaratish mumkin.

Halima Xudoyberdieva she'riyatining ta'sirchanligi rangning g'oyaviy jihatdan qo'llash mahorati zamirida yuzaga chiqadi. U qarama-qarshi tushunchalarni sifatlab kelgan muayyan bir rangning o'zini yondosh yoki kontrast qo'yish orqali ijodiy g'oyani jilolantirishga erisha olgan. Buni, ayniqsa, shoiri ijodida eng faol qo'llangan oq rang misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

ADABIYOTSHUNOSLIK

Rangning badiiy matnga kirganida turlicha ma'no-mohiyat kasb etishidagi estetik jihatdan muhim bo'lgan nominativlikni S.V.Bekova uch turga ajratadi: 1) neytral; 2) maxsus mualliflik topshirig'i bilan; 3) estetik. Unga ko'ra, birinchi tur – asosiy badiiy g'oya ifodasida neytral maqomda bo'ladi. Ammo dunyoqarashidan darak beruvchi muhim rol o'ynaydi. Ikkinchi holda, so'zning bevosita ma'nosi hissiy uyushmalar bilan murakkablashadi. Bu assotsiatsiyalar so'zning o'zida emas, balki kontekstda uni o'rab turgan so'zlardadir. Ushbu turdagi nominativlikdagi ma'no kontekstli siljishlarni ochmaydi, lekin ayni paytda boyitilgan ko'rinadi. Uchinchi turning nominativ ma'nosi, muallif nuqtayi nazaridan, faqat yozuvchining butun asari kontekstidan olinishi mumkin. U yozuvchi tili bo'lgan estetik tizim ichidagi bog'lanishlarni maxsus o'tkazilgan kuzatish natijasida yuzaga keladi.[2, 25].

Adabiy asardagi rang “qabul” qilinishi kitobxonning idroki bilan bog'liq jarayondir. Bunda, albatta, muallifdan yuqori hissiy-estetik did talab etiladiki, u o'z so'z boyligi bilan tabiiy manzarani imkon qadar ishonarli qilib “chizgilab (bo'yab) bera olishi” kerak. Garchi adabiy asar ifoda vositalari turlicha bo'lsa-da, rang qo'llashda rassomchilik ifoda tamoyillariga amal qilinishi badiiy tasvirning ishonarli chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonning e'tiborli muhim jihati shundaki, ijodkor tomonidan uning tasavvuridan idrokka olib kirilgan tabiiy rang o'quvchi tomonidan qabul qilinishida aynan “o'sha” bo'lmaydi.

Shu o'rinda bir muhim narsani unutmaslik kerakki, tabiiy (moddiy) rangdan adabiy matnga kirgan rang badiiy-estetik funktsiyalar bajarishdagi ahamiyati bir necha barobar oshib ketishi mumkin. Agar tasviriy san'at asarini yaratishda rassomning ijodiy g'oyasiga ko'ra polotno (mato) ustiga surgalغان rangni oladigan bo'lsak, u polotno yuzidagi boshqa ranglar qatori ko'rish “effekti”ni hosil qiladigan vosita – material sifatida qo'llanadi. Uning asosiy vazifasi boshqa ranglarga nisbatan kontrastlik yoki uyg'unlik hodisasini sodir etish bilan cheklanadi. Uning biror ramzga yo'g'rilganligi kabi masalalar keyingi o'rinda bo'lishi mumkin.

S.V.Bobil esa “rang” so'zlarning she'riyatdagi quyidagi funktsiyalarini keltirib o'tadi: a) tushunchani ifodalash; b) obyektlarni belgilash; v) obyektlarni talqin qilish (ular muallifning bahosini beradi). Muallifning ta'kidlashicha, “rangning tabiati kontekstning majoziy va ifodali xususiyatlarining o'sishiga yordam beradi – uning jonliligi, rang-barangligi, ravshanligi, kontrasti, bu o'z-o'zidan ranglarni belgilash va ramziylashtirish qobiliyatini oshiradi” [3, 13].

NATIJA VA MUHOKAMA

“Zamonaviy rang ramziyligi rangning she'riy metaforalariga kiritilgan va ruhiy hissiy ma'no belgilarini o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda rang ramzlarning kengaytirilgan tizimi yaratilgan: **oq** – poklik, bokiralik, nur, yengil, durkun, salqin, ko'zni qamashtiradigan, g'aroyib, yaltiroq.” [4,161].

Rang qo'llanishini yetti ko'rinishda tasniflash maqsadga muvofiq [5, 76] bo'lsa, Halima Xudoyberdieva oq rangni qo'llashi undagi 4) milliy-mental; 5) tabiiy-psixologik; 6) global (umumbashariy) tushunchalar ifodasi doirasiga to'g'ri keladi.

Agar bir she'riy kitobi doirasida mushohada qiladigan bo'lsak, Halima Xudoyberdievaning “Saylanma”sida 63 ta she'rda 102 marta rang qo'llangan bo'lib, ular quyidagicha: oq – 36; qora – 33; sariq – 16; qizil – 8; yashil – 6 (5ta ko'k yashil ma'nosida): ko'k – 3.

Ko'rinadiki, shoira ijodida oq rang eng faol qo'llangan.

Demak, Halima Xudoyberdieva lirikasida bir rangning she'riy makondagi obyektlarni sifatlab kelishida takror qo'llanishi shu rang bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarning tobora jilolanishi natijasida ijodiy g'oyaning yanada urg'ulanishi sodir bo'ladi.

Quyidagi she'rda lirik qahramonning oq rang timsolidagi ezgu niyatlari mujassam bo'lgan narsa-buyumlar orqali namoyon bo'la boradi:

Tishda dov-daraxtlar burkanar oqqa,
Qorga lab bosadir o'ylarim manim.
Qadrdon qalamim oppoq varaqqa
Pichirlab to'kadir kuygan-suyganim.
Kuydirgan, suydigan do'stlarim, salom,
Bul kun barchangizni chorlayman bir-bir.
Bul kun oqaradi kurrayi olam,
Muruvvat qo'lini cho'zadi taqdir.
 (“Yil boshi istaklari”) [6, 131]

Beg'uborlik timsolida ifodalanib kelayotgan oq rang dastlab qorni ramziy tushunchalardan falsafiy munosabatni kasb ettirgan bo'lsa, keyinchalik **oppoq varaqda** ezgu niyatning namoyon bo'lishi sifatida timsollanadi. Bundan ta'sirlangan **taqdir** ham butun olamga muruvvat qo'lini cho'zganidan "oqarishi" madh etiladi.

Daraxtlarni burkagan oq qorga lirik qahramon **o'ylari lablarini bosishidan** uning ezgulikka qanchalar intiqiligi qadrdon qalami oppoq varaqqa pichirlab to'kishida namoyon bo'ladiki, bunda lirik qahramon "barchani" chorlaydi, toki butun kurrayi olam oqarsa, ya'ni ezgulikka timsollangan oq rangga kirib beg'uborlashsa. Ko'rinadiki, bu o'rinda oq rang beg'ubor ezgulikning shodligi timsolida gavdalanadi va lirik qahramon uni barcha "do'stlari"ga ulushish ishtiyoqida.

Shoiraning yana bir she'rida ham oq rang o'zining ramziy ifoda ottenkalari vositasida lirik falsafani namoyon qilishi manzarasini ko'ramiz. Lekin bundagi oq rang quvonch va bayramona kayfiyatni emas, oxiroti bilan yuzlashishga taraddud ko'rayotgan, bu yorug' olam bilan vidolashayotgan lirik qahramonning so'nggi niyatini ifodalashga yo'naltiriladi:

Bir kun kelib tigramda tinib hayot qarsagi,
Menga ham yetib kelar yo'lning so'nggi farsahi.
Qovushmoq fursati ham yetibdi, qarsakki,
Xotirjam, ko'ksing aro qo'yadirman yuzimni.
Shu tong oppoq bir ezgu qor tushadir tuproqqa,
Oyoq-qo'lim tomirday qorishadir tuproqqa
Va bu dunyo aylanar oq qor, oq gulga, oqqa,
Men shu taxlitda Senga bag'ishlayman o'zimni.
O'zbekiston dalasi, O'zbekiston dalasi...
("O'zbekiston dalasi") [6, 132]

Lirik qahramon timsolidagi shoira o'zining hayot bilan xayrlashuv o'sha muqarrar kunidagi so'nggi istagini bayon qiladi. U uni mushtasham maqbara yoki ulkan yodgorligu, haykallar bilan yod etishlarini emas, balki jismi bir oppoq qorga aylanishi va u O'zbekiston dalasining tuprog'iga qorishib ketishi istaydi. Va u umid qilib ishonadiki, shundan bu dunyo oq qorga, oq gulga aylanadi. Fikrning eng kul'minatsion nuqtasi – dunyo butunicha oqqa aylanadi. Lirik qahramon so'nggi onlarida tanining oppoq qorga aylanish evaziga dunyoni ham oq rang ifodasiga jamlanib timsollangan beg'uborlikka aylanishini xohlaydi. Ya'ni bunda oq rang o'zi bilan bog'liq bo'lgan turli assotsiatsiyalarni birlashtirgani holda qordan gulga o'tib oxir oqibat dunyoning butunlay oqqa aylantiradi.

Demak, bunda oq rangning ta'sirchanlik dinamikasini kuzatamiz. Oq qordan gulga, hammayoqni gul qoplashi natijasida esa butun dunyo ham oqqa burkanishi, oq rang vositasida ijodkorning lirik ideali namoyon bo'ladi.

XULOSA

Oq rang Halima Xudoyberdieva lirik ruhiyatidagi asosiy ko'rsatkich ekanligi ma'lum bo'ladi. Lirik qahramon oq rang timsolidagi ezgu-niyati mujassamlashgan o'z ishonchini targ'ib qiladi. Oq rang ijodkorning g'oyaviy-estetik qarashlarni bevosita badiiy ko'chimlarda ramzlashi barobarida lirik qahramonning o'zini oq rangda timsollanishiga ishora va asos beradi. Rang tafakkur markaziga qo'yilib, uning ramziy ifodasi ijodiy kontseptni yo'naltirishga qaratiladi.

Bulardan xulosa qilish mumkinki, Halim Xudoyberdieva oq rangning turli ma'no jilolanishlaridan lirik idealini chuqur falsafiy-estetik mohiyat zamirida gavdalantirib bera olishda unumli foydalana olgan. Bularning barchasi XX asr oxirlaridagi ijodkorlarning davr ma'naviy ehtiyojlarini namoyon qilib berishda rang asosiy vosita bo'lganligiga yorqin asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Чичерин Б. Н. Курс государственной науки. Тома I-III Москва, типография товарищества И. Н. Кушнерев и Ко, 1894 г. // <https://studfile.net/preview/9943633/>
2. Бекова С.К. К проблеме идеологического словаря писателя (Семантико-стилистический анализ группы слов со значением цвета у А.М. Горького): Автореф. дис. ... канд. наук. – Л.: 1973.
3. Бобыль С.В. Семантико-стилистические свойства русских цветообозначений. Автореф. канд. филол. наук. – Псков, 1987.
4. Галеев Б. М., Ванечкина И. Л. Синтез в русской и мировой художественной культуре. – М.: МГПУ, 2004.
5. Abduraxmonov A. A. Zamonaviy o'zbek adabiyotida nur va rang poetikasi. Filol.fan.ilmiiy dar. olish uchun yozilgan dissertatsiya. Farg'ona – 2025.
6. Халима Худойбердиева. Сайланма. – Тошкент, Шарк, 2000.